

**"MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI
MARKAZ FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH "**

Tangrakulova Muhabbat Kenjayevna
Surxondaryo viloyati Denov pedagogika kolleji
Maxsus fan òqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda rivojlanib borayotgan maktabgacha ta'lism tizimidagi yangiliklar, olib borilayotgan ulkan islohotlar, yangi barpo bo'layotgan maktabgacha ta'lism tashkilotlari, oilaviy nodavlat va xususiy bog'chalarning rivojlanishi, maktabgacha ta'lism tizimida bola qamrovini yanada oshirish bo'yicha chora -tadbirlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Vizual ta'lism, tarbiya, rivojlanish, taraqqiyot, yangilik, qamrov, tashkiloti, pedagog.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lism tizimining barcha bo'g'inlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o'rinn tutadigan maktabgacha ta'lism sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bu tizim jamiyatning birlamchi va eng muhim bo'g'inidir. Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lism sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizda ta'lism tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiimoqda.

- Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- individual manfaatlarni qo'llab-quvvatlash;
- fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish;
- rivojlanish faoliyati;
- Nostandard holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish;
- Tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- Bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish;
- Vizual - majoziy idrokni rivojlantirish;
- Xotirani, nozik vosita ko'nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish;

• Kommunikativ ko'nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish;

• Bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollarini kengaytirish;

• Barkamol shaxsni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarini bajarishi kerak.

Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Gurux xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak.

Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak.

Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Tematik rejorashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o'yin uskunalari bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi.

"Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish" fani bo'yicha tayyorlangan ushbu darslikda ana shu nazariy-metodologik asoslarga

tayanilgan holda asosiy e'tibor - uning ilmiy-tadqiqod metodlari, maqsad va vazifalari, maktabgacha ta'lim didaktikasi, O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi, rivojlanishining asosiy bosqichlari, ta'lim sohasi bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy qonun hujjatlari, maktabgacha yoshdagagi bolalarni har tamonlama tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlar, shakl va usullari, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari, oila, maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik aloqalari, turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish va maktabgacha ta'lim tizimi tomonidan nazorat qilish kabi masalalar tahliliga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uzlucksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy zaminidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o'rinn tutadi.

Davlat rahbari asosiysi ta'lim-tarbiya mazmuni ekanini ta'kidlab, oilaviy bog'chalarga o'quv qo'llanma va metodik materiallarni bepul etkazib berish vazifasini qo'ydi. Buning uchun davlat tomonidan jami 30 milliard so'm ajratiladi. Shuningdek, bunday tashkilotilarni zarur jihozlar bilan ta'minlash uchun 5 foiz stavkada 30 million so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi. Olis hududlarda maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirishning yana bir manbasi

– davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalardir. Bugungi kunda bunday tashkilotilarda bir bola uchun 50 foiz xarajatlar subsidiya qilib kelinmoqda. Yig'ilishda ushbu subsidiya miqdorini 75 foizga etkazish, xususiy bog'chalarining elektr energiyasi va tabiiy gaz to'lovining 50 foizini davlat byudjetidan qoplash bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Davlat tomonidan yangi bog'chalar qurish ishlari ham davom ettirilmoqda. 2021-2022 yillarda 23 ta tumanning olis va chekka hududlarida 50 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti barpo etish rejalashtirilgan. Buning uchun qamrov darajasi eng past va bolalar soni 250 tadan oshgan 50 ta mahalla tanlab olingan. Prezident ushbu bog'chalarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qurish, zamonaviy jihozlar va qo'llanmalar bilan ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida yoki uning alohida guruhlarida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanishni tashkil etish ushbu tashkiloti zimmasiga yuklatiladi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tibbiyot xodimlari va ushbu tashkilotiga belgilangan tartibda biriktirilgan hududiy sog'liqni saqlash

organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari bilan birlashtirilishda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun mas'uldirilar. ta'minlash. Hujjat erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga (2019–2024-yil. va 2025–2030-yil.) mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichmabosqich amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1-dekabrga qadar keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritadi va ularning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Hujjat bilan rejalashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari belgilangan va ularni bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklangan. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotining 12 ming nafar xodimini o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi belgilandi.

Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tizimi kengaytirilib quydagi vazirliklar tashkil qilindi:

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

- Vazirlikning markaziy apparati;
- hududiy bo'llinmalar;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti;
- "Ilk Qadam" jurnali tahririyati;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi;
- Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi;
- Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish instituti;
- Infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha injiniring kompaniyasi;
- Maktabgacha ta'lim vazirligining pedagogika kollejlari.